Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta´minlashning ustuvor yo´nalishlari´ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

низкими доходами и увеличить доходы бюджета за счёт более состоятельных граждан.

Можно отметить следующие результаты реформ.

Рост инвестиционной привлекательности. Благодаря налоговым послаблениям и снижению бюрократических барьеров, в Узбекистане наблюдается рост иностранных инвестиций. Страна становится привлекательной для международных компаний, что способствует созданию рабочих мест и внедрению новых технологий.

Увеличение налоговых поступлений. Упрощение системы администрирования и борьба с теневой экономикой позволяют государству увеличить собираемость налогов. По данным Министерства финансов, доходы бюджета в 2023 году выросли на 20% по сравнению с предыдущим годом.

Социальное равенство. Прогрессивная система налогообложения и льготы для малообеспеченных слоёв населения укрепляют социальное равенство и способствуют снижению уровня бедности.

Имеются следующие вызовы и перспективы.

Несмотря на успехи, остаются вызовы, такие как необходимость улучшения налогового контроля, борьбы с уклонением от уплаты налогов и повышения финансовой грамотности населения. Кроме того, важно учитывать баланс между снижением налоговых ставок и сохранением бюджетной стабильности.

В перспективе Узбекистан планирует продолжать реформы, интегрируясь в мировую экономику и повышая конкурентоспособность своих компаний. Эти усилия свидетельствуют о стремлении страны к устойчивому экономическому развитию и повышению уровня жизни населения.

В заключении отметим то, что налоговые реформы в Узбекистане демонстрируют серьёзный подход к созданию современной и эффективной налоговой системы. Их успех зависит от консолидации усилий государства, бизнеса и общества, а также от способности адаптироваться к новым вызовам. Эти преобразования не только укрепляют экономику страны, но и создают основу для её долгосрочного роста. Ожидается, что нововведения в 2025–2026 годах помогут сократить дефицит консолидированного бюджета до 3,0% ВВП. Прогноз доходов бюджета на 2024 год установлен на уровне 270,6 трлн сумов или 20,8% ВВП. Поступления прямых налогов ожидается на уровне 85,6 трлн сумов, что на 12,3 трлн сумов (117%) превышает запланированные показатели 2023 года.

Использованная литература:

Номазов, Б. Б. (2023). О задачах модернизации налоговой системы Узбекистана. Экономика и социум, (5-1 (108)), 650-655.

Юлдашев, А. Я., & Жураев, Э. С. (2022). НАЛОГОВАЯ ПОЛИТИКА И СПОСОБЫ ЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ. Экономика и социум, 1084.

Тулаков, У. Т. (2020). Результаты налоговых реформ, осуществляемых в Узбекистане. Экономика и бизнес: теория и практика, (3-2), 190-194.

DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLARNING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

To‘rayev Shavkat Shuxratovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Hududiy o‘quv muassasalari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Published: 23.12.2024

Cite this article: To‘rayev Shavkat Shuxratovich (2024). Davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashda soliqlarning tutgan o‘rni va ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/990

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

narzullotfi@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashda soliqlarning tutgan o‘rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda soliqlarning barqaror daromad manbasi sifatida xizmat qilishi uchun samarali soliq tizimini shakllantirish va optimallashtirish zarurligi ta’kidlanadi. Bundan tashqari maqolada soliq siyosatining davlat budjeti daromadlariga ta'sirini o‘rganishda zamonaviy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Xususan, maqolada soliqlarning turli toifalari, ularning byudjetga kiritadigan ulushi va barqarorlikni ta'minlashdagi strategik roli haqida batafsil tahlil qilinadi. Soliq yukini optimallashtirish va soliqlarni adolatli taqsimlash orqali iqtisodiyotni rag‘batlantirish va fuqarolar ishonchini oshirishga erishish yo‘llari tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: Soliq, davlat budjeti, soliq siyosati, soliq daromadlari, soliq turlari, soliq yuki, soliq to‘lovlari, davlat xarajatlari, soliqlarni optimallashtirish, soliq bazasi, soliq tizimi, soliq imtiyozlari, soliqlarning samaradorligi, soliq tushumlari.

Davlat budjeti daromadlarini barqarorligini ta'minlashda soliqlarning roli katta ahamiyatga ega. Soliqlar nafaqat davlat daromadlarining asosiy manbai, balki iqtisodiy barqarorlikni saqlash, resurslarni qayta taqsimlash va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda ham muhim vositadir. Davlat budjeti daromadlarining barqarorligi iqtisodiyotning rivojlanishiga bevosita bog‘liq. Soliqlar to‘plangan mablag‘larni davlatning strategik ehtiyojlari, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va jamoatchilik xizmatlarini ta'minlash uchun yo‘naltirish imkonini beradi. Shu bilan birga, soliqlar davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish uchun asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Soliq tizimi davlat va iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta'minlaydi, bu esa byudjetni to‘ldirish uchun doimiy manbalarni kafolatlaydi.

Soliqlar davlat budjeti daromadlarining eng muhim qismi bo‘lib, ular orqali davlat o‘z funksiyalarini bajarish uchun zarur mablag‘larni shakllantiradi. Soliq tushumlari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi (1-jadval):

1-jadval

Soliq tushumlarining asosiy vazifalari[52]

Budjetni moliyalashtirish	Soliqlar davlat budjetining asosiy daromad manbai bo‘lib, davlat tomonidan ijtimoiy soha, infratuzilma va boshqa strategik loyihalarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.
Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash	Soliqlar orqali davlat iqtisodiyotdagi resurslarni qayta taqsimlab, barqarorlikni saqlashga erishadi.
Ijtimoiy tenglikni ta’minlash	Progressiv soliqlar orqali davlat yuqori daromadli qatlamlardan ko‘proq mablag‘ yig‘ib, kam ta’minlangan aholini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini oshiradi.

Yuqoridagi jadvalda berilgan ma’lumotlarga tayangan holda shuni aytishimiz muminki, soliq tushumlarining asosiy vazifalari davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uning iqtisodiy hamda ijtimoiy siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni shakllantirishdan iborat.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda soliq tizimining islohotlari davlat budjeti daromadlarining barqarorligini oshirishga qaratilgan. Xususan, soliq yukining tadbirkorlik subyektlari uchun maqbullashtirilishi, soliq turlarining qisqartirilishi va soliq ma’muriyatchiligini soddalashtirish orqali budjet daromadlarini oshirishga erishilmoqda.

[52] Internetdagi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Bu islohotlar nafaqat soliqlar yig‘ilishining samaradorligini oshirdi, balki soliqlarni to‘lash intizomini mustahkamladi. Shu bilan birga, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlari iqtisodiy faollikni rag‘batlantirib, soliq bazasini kengaytirishga imkon yaratmoqda.

2018-2023 yillar mobaynida mamlakatimizda YaIM hajmi (miqdori) muntazam ravishda o‘sib borgan. Shunga mos ravishda soliq turlari bo‘yicha davlat budjetiga tushgan tushumlar miqdori ham o‘sib borgan (2-jadval).

2-jadval

Soliq turlari bo‘yicha davlat budjetiga tushgan tushumlar miqdori (mlrd.so‘m)[53]

	Soliq turlari	**2021-yil 31-dekabr holatiga tushumi**	**2022-yil 31-dekabr holatiga tushumi**	**2024-yil 1-yanvar holatiga tushumi**
	Budjetga tushumlar, jami	**127 970**	**148 388**	**165 918**
	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	25 572	32 812	33 983
	Aksiz solig‘i	12 779	13 077	15 133
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	38 363	37 650	40 779
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	18 918	24 285	29 518
	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	15 812	13 887	15 300
	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	684	704	791
	Mol-mulk solig‘i	2 457	4 015	5 098
	Yer solig‘i	4 083	5 306	6 890
	Davlat boji va jarimalar	3 333	4 236	4 856
0	Boshqa tushumlar va yig‘imlar	5 969	12 416	111 61

Yuqoridagi jadvalda berilgan ma’lumotlar asosida 2021, 2022 va 2023-yildagi soliq turlari bo‘yicha davlat budjetiga tushgan tushumlar miqdorining o‘sib borishini ko‘rishimiz mumkin. Byujetga umumiy tushunlarni e’tiborga oladigan soliqlarning 2021-yildagi tushumi 127 970 mlrd.so‘mni tashkil qilgan. 2022-yilda esa 148 388 mlrd. so‘mni tashkil qilib, bu o‘tgan yilga nisbatan 20 418 mlrd. so‘mga ko‘paygan. 2023-yilda esa davlat budjetiga soliq tushumlarining jami miqdori 165 918 mlrd.so‘mga teng va o‘tgan 2022-yilga nisbatan 17 530 mlrd. so‘mga ko‘paygan. Bundan kelib chiqib aytishimiz

[53] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining www.soliq.uz rasmiy saytining https://soliq.uz/page/asosiy-korsatkichlar havolasidagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

mumkinki, soliq daromadlari davlatning iqtisodiy rivojlanishga o‘zining sezilarni ta’sirini o‘tkazib kelmoqda.

Soliq daromadlari davlatning iqtisodiy siyosatidagi barqarorlikni saqlashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. To‘g‘ri va samarali soliq siyosati nafaqat davlat daromadlarini oshirish, balki iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish uchun ham muhimdir. Shu nuqtai nazardan, soliq stavkalarini moslashuvchan belgilash, soliq solish bazasini kengaytirish va soliq to‘lovchilarning ishonchini oshirish kabi omillar iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, soliq tizimining adolatli va samarali bo‘lishi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Bu soliq yukining teng taqsimlanishi, korruptsiyani kamaytirish va davlatning moliyaviy resurslariga bo‘lgan ishonchni oshirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlari iqtisodiy o‘sishga turtki beradi va davlat byudjetining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, davlat budjeti daromadlarini barqarorligini ta'minlashda soliqlar strategik vosita hisoblanadi. Soliq siyosatini to‘g‘ri yo‘naltirish va boshqarish orqali davlat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashi, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishi va kelajakda moliyaviy xavfsizlikni kafolatlashi mumkin. Shu bois, soliqlarning roli nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlik uchun ham muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta’minlashda soliqlarning o‘rni beqiyosdir. Samarali soliq siyosati va tizimli islohotlar orqali davlat moliyaviy resurslarini to‘g‘ri boshqarish, iqtisodiy barqarorlik va aholi farovonligini oshirishning muhim omiliga aylanadi. Shu bois, soliqlarni boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish davlat budjetining barqarorligi uchun asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘grisida”gi PF-5468-son Farmoni. https://lex.uz/docs/3802378

7. Asen, E. Corporate Tax Rates around the World, 2023. FISCAL FACT. No. 735. Dec. 2023.

8. Титов А.А. Совершенствование налога на прибыль организаций в Российской Федерации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Москва, 2006.

9. To‘rayev Sh.Sh –“Milliy iqtisodiyotda soliq yukini optimallashtirishni ekonometrik modellashtirish” Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali. 2022-yil, 3-son.

10. Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - T.: TMI, 2018. - 30 b.

11. Islamqulov A.X. Byudjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini ta’minlash yo‘llari: I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tasdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: BMA, 2012. 21 b.